



Principles of teaching foreign languages based on "soft skills" approaches in the continuous education system of Uzbekistan

Nilufar KARIMOVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
15 May 2025
Accepted 15 June 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

continuing education,
foreign languages,
soft skills,
competency approach,
methodology,
innovation education,
language teaching,
critical thinking,
communicative skills,
integrated teaching.

ABSTRACT

This article analyzes the importance of soft skills-based approaches to teaching foreign languages in Uzbekistan's continuing education system and the principles of their integration into the educational process. In particular, the possibilities of improving the effectiveness of learning a foreign language through the development of skills such as critical thinking, creativity, communication and cooperation are considered. The article also highlights the pedagogical and methodological foundations for the development of soft skills, integrated with a competency approach at the stages of continuing education. The study promotes innovative approaches to foreign language teaching based on practical examples and modern teaching methods.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp17-21>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni "soft skills"ga asoslangan yondashuvlar asosida o'qitish prinsiplari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

uzluksiz ta'lim,
xorijiy tillar,
soft skills,
kompetensiyaviy
yondashuv,
metodika,
innovatsion ta'lim,
til o'rgatish,

Mazkur maqolada O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishda "soft skills" (yumshoq ko'nikmalar) asosidagi yondashuvlarning ahamiyati va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish tamoyillari tahlil qilinadi. Jumladan, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish orqali xorijiy tilni o'rganish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

¹ PhD, Associate Professor, Uzbekistan State World Languages University. E-mail: ummatkulovna93@mail.ru

tanqidiy fikrlash,
kommunikativ ko'nikmalar,
integratsiyalashgan o'qitish.

Shuningdek, maqolada uzluksiz ta'lim bosqichlarida kompetensiyaviy yondashuv bilan integratsiyalashgan holda "soft skills"ni rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari yoritiladi. Tadqiqotda amaliy misollar va zamonaviy o'quv metodlari asosida xorijiy til o'qitishning innovatsion yondashuvlari ilgari suriladi.

Принципы преподавания иностранных языков в системе непрерывного образования Узбекистана на основе подходов, ориентированных на развитие «гибких навыков» (soft skills)

Ключевые слова:

непрерывное образование,
иностранные языки,
гибкие навыки,
компетентностный
подход,
методология,
инновационное
образование,
языковое обучение,
критическое мышление,
коммуникативные
навыки,
интегрированное
обучение.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значение подходов к обучению иностранным языкам в системе непрерывного образования в Узбекистане на основе "soft skills" (гибких навыков) и принципы их интеграции в образовательный процесс. В частности, будут рассмотрены возможности повышения эффективности изучения иностранного языка за счет развития таких навыков, как критическое мышление, творчество, общение и сотрудничество. Также в статье освещаются педагогические и методические основы развития «гибких навыков» в комплексе с компетентностным подходом на этапах непрерывного образования. В исследовании выдвигаются инновационные подходы к обучению иностранному языку на основе практических примеров и современных методов обучения.

KIRISH

Til yordamida jamiyat o'zining adabiy, diniy, falsafiy, ma'rifiy sohalardagi qadriyatlari, asarlari, merosini yaratib kelmoqda. Shu bilan birga, aynan til vositasida inson faoliyatining turli yo'nalishlariga taalluqli meros yaratilgan. Til insoniyat ma'naviy-madaniy merosining bosh vositasi hisoblanadi. Til orqali bashariyat milliy-ma'naviy hamda madaniy merosi va qadriyatlari namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, aynan til vositasida milliylik qirralari, uning xususiyatlari, milliylik tizimi shakllantiriladi. Binobarin, tildan tashqari na madaniyat, na xalq, na ma'naviyat va na tarix mavjud bo'la olmaydi. Ularning barchasi til vositasida amal qiladi.

O'zbekistonda tillarga bo'lgan munosabat o'zining ikki o'zaro bog'liq, shu bilan birga, o'ziga xos tamoyillari orqali namoyon bo'ladi. Bular:

a) o'z ona tiliga bo'lgan milliy o'zlikni anglash hamda millat ma'naviyati va genofondini asrash, milliy manfaatlarni muhofaza qilish asosi sifatidagi e'zozli va qadrlil munosabat;

b) xorijiy, ya'ni chet tillariga nisbatan milliy an'analar va insonning dunyo hamjamiyatidagi o'rni hamda mavqeini ta'minlovchi va ko'taruvchi manba sifatidagi xurmatli munosabat. Bizning yurtimizda ko'p tillilik yoki poliglotlik hodisasi qadimdan mavjud bo'lib, O'zbekistonda ko'pchilik dunyo tillarini o'rganishga yaratilgan ijtimoiy-

ta'limiy shart-sharoitlar bir tomondan bizning yoshlarimiz uchun qadimiy meros sanalsa, ikkinchi tomondan zamonaviy, har tomonlama mukammal va etuk mutaxassis bo'lish uchun qo'yilgan qadamlardan biridir.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlar, talabalar o'tmish avlodlarning milliy til va umuman tilga bo'lgan muqaddas munosabatining negizlarini aniq bilishlari, ularning ham o'z an'analari qatoriga kiritishlari taqozo etiladi. Mazkur bilimlar talaba-yoshlar tafakkurida quyidagi fe'l-atvor va xarakter xususiyatlarining shakllanishi uchun xizmat qiladi:

- xorijiy tillarni o'rganish barobarida o'zbek tilini ardoqlash, uning o'zbek millati va xalqining betakror va bosh xususiyatlaridan biri ekanligini anglash, o'zbek tiliga muqaddas qadriyat sifatida qarash, o'z tili boyligi va imkoniyatlarini egallashga sa'y-harakat qilish;

- shu bilan birga, barcha milliy tillar o'z halqi uchun ardoqli ekanligini hisobga olish, barcha xalqlar uchun ma'naviy boylik ekanligini tushunish, shu bois yoshlarning til va til munosabatlariga nisbatan, o'zga tillarni o'rganish orqali o'zga xalqlar madaniyati, ular tarixi va ma'naviy merosiga nisbatan bag'rikeng bo'lishga intilish;

- til va til o'rganishga doir Sharq va G'arb mutafakkirlarining barcha fikrlari, qarashlari va munosabatlarini idrok etish, ulardan o'rnak olish, mana shu fikrlarning mag'zini chaqishga, hayotiy mezonga aylantirishga harakat qilish. Binobarin, chet tillarni o'rganishda milliy an'analar, qadriyatlar, SHarq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari tizimi, til amaliyoti va til nazariyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar muhim bo'lib, ularning barchasini nazarga olish hamda mavjud imkoniyatlarning barchasidan unumli foydalanish taqozo etiladi.

Ma'lumki, O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonining o'ziga xos bo'g'ini sifatida chet tillariga o'rgatish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Bunda bir tomondan, bizga qardosh bo'lgan va an'anaviy tarzda bizning hududimizda yashab kelgan xalqlarning tillarini o'qitishni saqlab qolish, ularni kuchaytirish va kengaytirish, ikkinchidan esa, juda katta qiziqish uyg'otgan xorijiy tillarni, xususan, G'arb va Sharq xalqlari tillarini o'qitishni kuchaytirish yo'lidan borildi.

Chet tillarni o'qitishda o'ziga xos tamoyillar tizimi mavjud bo'lib, mazkur tamoyillar chet tillariga bo'lgan ijtimoiy munosabatni, chet tillarni o'qitish uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni, chet tillarni o'rganishda individning tayyorligi, layoqati, qobiliyati, shuningdek, uning shaxsiy psixologik va emotsional xususiyatlarining mos kelishi, chet tillarini o'rganishda mamlakatimizdagi davlat siyosatining joriy etilishi kabi tamoyillarni o'z ichiga qamrab oladi va mazkur tamoyillar majmuasi chet tillarni o'rganishda pedagogik samaradorlik asosini tashkil qiladi [1].

Ingliz tili bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida global aloqalar, ish faoliyati va ijtimoiy muloqotning asosi hisoblanadi. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi doirasida ingliz tilini o'qitishning ahamiyati ortib bormoqda, chunki bu til nafaqat ilmiy va madaniy almashinuvni ta'minlaydi, balki ish bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ham zarur. Biroq, faqatgina tilni o'rganishning o'zi yetarli emas. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarga faqat gramatika yoki lug'at emas, balki ijtimoiy, emotsional va muloqot ko'nikmalari – ya'ni "soft skills"ni rivojlantirish ham zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida "ta'limning innovatsion potentsiali" to'g'risida tizim shakllanmagan va aniq ilmiy xulosalar etishmaydi. Shu sababli ta'lim tizimini asosiy kriteriyalarni baholash va innovatsion potentsialini rivojlantirish bilan bog'liq holda aniq

xulosa bo'yicha ma'lumotlar yetishmaydi. Chunki uzluksiz ta'lim jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun jamiyatning rivojlanishidagi innovatsion rivojlanishga asoslangan tizim eng avvalo uzluksiz ta'lim tizimida o'z aksini topishi va jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilab berishi maqsadga muvofiqdir. Bunda ichki imkoniyatlarni rivojlantirish va eng ilg'or texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish uchun xalqaro aloqalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Buning uchun esa xorijiy tillarni yuqori darajada bilish taqazo etiladi.

Shunga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tilni o'qitishda o'quvchi va talabalarning "soft skills"ini takomillashtirishga qaratilgan model va amaliyotga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta'lim sifatini oshirish bilan birga yuqori ehtiyoj va talabga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda xorijiy tilni yuqori darajada o'qitishning eng samarali ko'rsatkchilari uzluksiz ta'lim bsoqichlari faoliyati asosida amalga oshirilishi e'tirof etiladi. Shuning uchun ta'lim tizimiga xorijiy tilni o'qitishda ham jamiyatdagi eng ilg'or yetakchi tizimi sifatida qaraladi [2].

Soft skills – bu ijtimoiy, emotsional va kommunikativ ko'nikmalarni ifodalaydi. Ular orasida muloqot, jamoada ishlash, vaqtni boshqarish, tanqidiy fikrlash, kreativlik, stressni boshqarish va boshqalar mavjud. Ingliz tilini o'qitish jarayonida soft skillsni rivojlantirish o'quvchilarga tilni samarali o'rganish bilan birga, ular orasida muvaffaqiyatli muloqot o'rnatish, jamoada ishlash, stressni boshqarish va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi [3]. Bu esa o'quvchilarning faqat til bilimlarini emas, balki hayotdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

Tadqiqotlarimiz davomida o'quvchi va talabalarning "soft skills"ini takomillashtirishda quyidagi tamoyillarga asoslandik:

1. Talaba markazli yondashuv

O'zbekistonda ingliz tilini o'qitishda soft skillsni rivojlantirishning birinchi prinsipi – talaba markazli yondashuvni qo'llashdir. Bu yondashuvda o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va maqsadlari ta'lim jarayoniga kiritiladi. Ingliz tilini o'qitishda soft skillsni rivojlantirish uchun o'quvchilarga individual yondashuv zarur. Masalan, muloqot qilish, jamoaviy faoliyatlar va kreativ vaziyatlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalash, boshqalar bilan samarali ishlash imkoniyatini beradi.

2. Integratsiyalashgan yondashuv

Soft skillsni rivojlantirishda ingliz tilini o'qitishning integratsiyalashgan yondashuvi muhimdir. Bu yondashuv til o'rganishning faqat lingvistik jihatlari bilan cheklanib qolmasdan, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishni ta'minlaydi. Masalan, o'quvchilarga ingliz tilida murakkab muloqotlarni o'rganishda, ular uchun muhim bo'lgan soft skills, ya'ni tinglash, bahslashish, baholash va o'z fikrlarini aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu yondashuv orqali o'quvchilar ingliz tilini o'rgatishda nafaqat tilni o'rganish, balki ijtimoiy vaziyatlarda o'zaro faoliyatni ham rivojlantiradilar.

3. Interaktiv va amaliy Metodlar

Ingliz tilini o'qitishda soft skillsni rivojlantirishda interaktiv va amaliy metodlarning ahamiyati katta. O'quvchilarni faqat darsda passiv tinglovchi sifatida qoldirmay, ularni faol ishtirokchiga aylantirish zarur. Masalan, rolli o'yinlar, guruh ishlari, simulyatsiyalar va muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar tilni o'rgatish

jarayonida soft skillsni rivojlantirishlari mumkin. Interaktiv metodlar o'quvchilarga o'zaro muloqotda bo'lish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlashni o'rgatadi. Bu jarayon o'quvchilarning ijtimoiy, emotsional va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantiradi.

4. Emotsional intellektni rivojlantirish

Ingliz tilini o'qitishda soft skillsni rivojlantirishda emotsional intellektni (EI) rivojlantirish ham muhimdir. Emotsional intellektga ega bo'lgan o'quvchilar boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish va stressni samarali yengib o'tish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'quvchilarga o'zlarining emotsional holatini anglash va boshqalar bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish, ularning til o'rganishdagi muvaffaqiyatini oshiradi [4]. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning o'zini hurmat qilish, boshqalar bilan hamkorlikda ishlash va murakkab vaziyatlarni boshqarish qobiliyatlarini yaxshilaydi.

XULOSA

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish faqat til bilimi bilan cheklanmasdan, keng kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olishi zarur. O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishda "soft skills" – ya'ni, muloqot qilish, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash va moslashuvchanlik kabi ko'nikmalarga asoslangan yondashuvlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodlar, ayniqsa kompetensiyaviy yondashuv, integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari va "soft skills"ni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tahlil qilindi. O'rganish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish orqali nafaqat til o'rganiladi, balki talaba yoki o'quvchining umumiy hayotiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiluvchi ko'nikmalar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Maxmudova. Chet tillarni o'qitishning pedagogik tamoyillari. Xorijiy filologiya №3 2017. Elektron resurs: <http://samxorfil.uz/images/source/rdf/2017/3/Makhmudova.rdf>
2. Одинабекова Р.М. Социокультурное обеспечение качества профессиональной подготовки студентов в техническом колледже: Диссертация. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – Казань, 2005. – 195 с.
3. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
5. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Longman.
6. Robbins, S. P., & Judge, T. A. (2019). Organizational Behavior (18th ed.). Pearson.
7. Salomova, D. (2021). "Zamonaviy til o'qitish metodikalari va 'soft skills' integratsiyasi." Ta'lim va innovatsiya, №3.
8. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar." (2023)